

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM- TARBIYA BERISHDA AXBOROT VA INNAVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Jakbaraliyeva Zuxra G'anijon qizi

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 40-sonli DMTT tarbiyachisi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolda maktabgacha ta'lim natijadorligini oshirishda axborot texnologiyalari va innavatsion ta'lim texnologiyasining ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, afzallik va imkoniyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** bola, ta'lim, tarbiya, o'yin, axborot texnologiyalari, interfaol texnologiya, multimedia, audio, video, animatsiya, dastur

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan axborotlashtirish tizimi jamiyatimizning barcha sohaları qatorida ta'lim sohasini ham qamrab olmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada yanada takaomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida"gi 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349 - sonli hamda 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2018-yil 19-fevraldagi 3549-sonli Qaroriga muvofiq jamiyatimizning boshqa sohalarida bo'lganidek, maktabgacha ta'lim sohasida ham ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridan keng foydalanish ta'lim sifatini ta'minlovchi vositalardan biriga aylanmoqda. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohaları uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi. Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarning qamrovi 75 foizni tashkil etmoqda.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. Eng avvalo, pedagog kompyuter o'yinlarini va ta'lim dasturlarini tanlashda bolaga boshchilik qilishi kerak. Buning uchun



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

tarbiyachi kompyuter savodxonligini egallagan bo`lishi zarur, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilayotgan ta`lim-tarbiya faoliyatida bevosita global internet tarmog`i resurslaridan unumli foydalana olishi muhim.

Maktabgacha yoshdagi bola hayotida o`yin – bu eng asosiy faoliyat turi hisoblanib, u bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Gap kompyuter o`yinlari haqida borar ekan, tarbiyachi o`yinlarning bola yoshi va axloq me`yorlariga mos kelishini hisobga olishi kerak. Kompyuter o`yinlaridan foydalanish (multimediya vositasida) bolalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish bilan birga bolaning aqliy va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda ijobiy natija beradi. Paint dasturida bola rasm chizish jarayonida tasvirlagan predmet yoki hayvon, tabiat manzarasi yoki odam rasmiga rang tanlashi, mavjud ranglarni farqlashi, ularni joy-joyida ishlatishi, natijada o`z ishini baholashi davomida uning individual shaxs xususiyatlari, qiziqishlari oddiy qog`ozga rasm chizgandan ko`ra yaqqolroq ifodalanadi. Shu bilan birga AKT bolaga interfaol ta'lim berish vositasi sifatida bolaning yangi bilimlarni tez o`zlashtirishiga va dunyoqarashini kengayishiga imkon beradi. Bu interfaol kompyuter o`yinlari tarbiyachi tomonidan davlat talablariga mos ravishda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o`tkazilgan videoselektor yig`ilishida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab berildi. Jumladan, ilg`or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta`lim sifatini oshirish, maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta`lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo`llaniladigan zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta`lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo`yildi.

Istiqbolda belgilanayotgan bunday ulkan vazifalarning amalga oshirilishi sohaning me`yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishni talab etadi. Shu bois, ilg`or xorijiy tajriba asosida “Maktabgacha ta`lim to`g`risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqishdan iborat o`ta dolzarb vazifa yuklatildi.

E`tirof etish kerakki, mazkur qonun loyihasining ishlab chiqilishi o`z navbatida ta`lim sohasiga oid milliy qonunchiligimizning yanada takomillashuviga, sohaga oid barcha munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

ekan, tizim oldiga qo‘yilgan vazifalarning ijrosini ta‘minlash biz soha xodimlaridan ham faollikni va mas‘uliyatni talab etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasini Presidentining Qarori PQ-3261 — “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 09.09.2017.
2. UNESCO, Montoya S. Defining literacy. GAML fifth meeting, Germany, 2018.
3. Barnett, W. Preschool education for economically disadvantaged children: Effects on reading achievement and related outcomes. In S. B. Neuman & D. K. Dickinson (Eds.), Handbook of early literacy research, Vol. 1, pp. 421-443. New York: Guilford Press, 2001
4. To‘raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari.T.;Fan, 2007.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

